



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

QURILISH SANOAT KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, “Menejment kafedrası”katta oqituvchisi
Zikrullaev Valixon G’aybullə o’g’li

Annotatsiya

Ushbu maqola qurilish sohasida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan bo‘lib, korporativ boshqaruvdagi zamonaviy muammolar, ularni bartaraf etishda ilg‘or xorij tajribalardan foydalanish, shuningdek bu borada nazariy yondashuvlar aks ettirilgan bo‘lib, tegishli xulosa va takliflar hamda qurilish sohasida korporativ boshqaruvning istiqbolli jihatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: qurilish korxonasi, aksiyadorlik jamiyati, aksiyadorlar, korporativ boshqaruv, moliyaviy boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy model, biznes yuritish, xorijiy tajriba, minoritar aksiyador, korporatsiya, investor.

Аннотация

Данная статья посвящена дальнейшему совершенствованию корпоративного управления в строительной сфере, отражены современные проблемы в корпоративном управлении, использование передового зарубежного опыта по их устранению, а также теоретические подходы в связи с этим, соответствующие выводы и предложения, а также по мере развития корпоративного управления в строительной отрасли описаны перспективные аспекты.

Ключевые слова: строительное предприятие, акционерное общество, акционеры, корпоративное управление, финансовый менеджмент, социально-экономическая модель, ведение бизнеса, зарубежный опыт, миноритарный акционер, корпорация, инвестор.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

Annotation

This article is devoted to the further improvement of corporate governance in the construction industry, reflects current problems in corporate governance, the use of advanced foreign experience in their elimination, as well as theoretical approaches in this regard, relevant conclusions and proposals, as well as the development of corporate governance in the construction industry perspective aspects are described.

Key words: construction company, joint-stock company, shareholders, corporate governance, financial management, socio-economic model, doing business, foreign experience, minority shareholder, corporation, investor.

Kirish qismi. Bozor qonuniyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlari belgilangan davlatlarda korporativ boshqaruv amaliyotiga doimiy ravishda diqqat-e’tibor qaratilgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu boisdan mazkur masala xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning ham e’tiboridan chetda qolmasdan kelmoqda. Xususan, Juhon banki guruhi tomonidan har yili e’lon qilib kelinayotgan “Biznes yuritish” (Doing Business) hisobotlarida biznes yuritishga ta’sir yetuvchi muhim omil sifatida minoritar investorlar huquqlarini himoya qilish holati alohida davlatlar kesimida tahlil qilinib, reyting tuzib chiqilmoqda.

Shuningdek, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan 2015 yilda hozirgi real shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda “Korporativ boshqaruv prinsiplari” qayta e’lon qilinganligi korporativ boshqaruv amaliyotining milliy va jahon iqtisodiyoti uchun qay darajada muhimligini ko‘rsatmoqda[1].

Respublikamizda ham iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash maqsadida korporativ tuzilmalar, xususan, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida qator islohotlar o’tkazilmoqda.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarni strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish” [2]. masalasi alohida belgilab qo‘yildi. Bunda korporativ boshqaruv



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

tizimi samaradorligini oshirish, axborotlarni oshkor qilish va faoliyat shaffofligini ta'minlash, aksiyadorlar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish kabi jihatlarga ustuvor darajada e'tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism. Keltirilayotgan jihatlar mamlakatimizdagи qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv mexanizmidagi zamonaviy muammolar aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etishini ham shu o'rinda qayd etib o'tish zarur.

Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda iqtisodiy sohalar bo'yicha tayyorlanayotgan mutaxassislarning zamonaviy korporativ boshqaruv xususida yetarli darajada bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlash iqtisodiy oliv o'quv yurtlari oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

Korporativ boshqaruv tizimini qurishning xorij tajribasi bo'yicha quyidagilarni aytish mumkin. Halqaro miqyosda qonunlarning va korporativ tashkilotlar shakllarining konvergensiysi ro'y berdi.

Ma'lumki, hozirgi paytda korporativ boshqaruv tizimining o'ziga hos bir-biridan ajralib turadigan uch turi farqlantiriladi.

Asosiy modellar – ingliz-amerika (ingliz-sakson modeli), german va yapon modellari ichki boshqaruv tuzilmalarini cheksiz xilma-xilligining vakillaridir.

Amerika iqtisodiy-ijtimoiy modeli (Angliya, AQSh) – ihtiyoriy fuqaroga shaxsiy boylikka erishish imkoniyatini ta'minlash («autsayderlik», ya'ni asosan kompaniya faoliyatiga aloqador bo'lмаган guruh tomonidan kompaniya faoliyatining nazaratiga asoslangan).

Yaponiya korporativ boshqaruv tizimi mahalliy biznes madaniyatini akslantirib, unda o'zaro ishonchga asoslangan uzoq muddatli shaxsiy munosabatlar, shartnomalar va ehtimoliy sud ajrimlariga asoslangan ishbilarmonlik munosabatlariga nisbatan kattaroq rol o'ynaydi[3].

Oqibatda, qonunchilik va davlat tomonidan tartibga solish korporativ boshqaruvda kamroq ahamiyatga ega. Aksiyadorlik jamiyatları bo'yicha qonunchilik va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarning tartibga solinishi Amerika ta'sirini akslantiradi. Odatda aksiyadorlar xususiy lashtirilgan korporatsiya ustidan nazoratni



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

direktorlar kengashi orqali amalga oshiradilar. Kengashning vazifasi uchta – vakillik, siyosatning aniqlanishi va nazorat.

Dunyoda direktorlar kengashining ikki asosiy modeli mavjud – amerika (unitar) modeli va nemis (ikkilangan kengashlar tizimi) modeli Amerika qonunlariga binoan, kompaniya faoliyatini unitar direktorlar kengashi boshqaradi. Amerika qonunlari ijrochi direktorlar (ya’ni bir vaqtning o’zida kompaniya menejerlari bo’lgan direktorlar) va mustaqil direktorlar (kompaniyada o’z manfaatlariga ega bo’lmagan taklif etilgan shaxslar) orasida vazifalar taqsimotini ajratib ko’rsatmaydi, va faqat kompaniya faoliyati uchun kengashning umumiyligi javobgarligini aniqlaydi.

Oxirgi yigirma yilda paydo bo’lgan umumiyligi tendensiya shundan iborat bo’ldiki, direktorlar kengashi umumiyligi tarkibida ijrochi direktorlarning vakilligi qisqariib, mustaqil direktorlar soni o’sib bordi. Korporativ boshqaruvning amerika tizimi xususiyatlari AQShda aksiyadorlik mulkchilikning xususiyatlariga bevosita aloqador. Hususan, amerika korporatsiyalarida boshqa investorlarga ko’ra o’z ta’sirini kuchliroq o’tkaza oladigan yirik investorlarning yo’qligidir.

AQShdan farqli o’laroq, Germaniyada korporativ boshqaruvning katta qismi boshqa kompaniyalar egaligida turadi: Germaniyaning yalpi aksiyadorlik kapitalining yarmidan ko’pini bir-birining aksiyalariga egalik qilish orqali faoliyatda o’zaro qatnashish tizimi o’z ichiga oladi.

Xususiy investorlar Germaniyada ikkinchi yirik investorlar guruhini tashkil qilsa ham (nemis kompaniyalarining taxminan 16% aksiyasiga egalik qiladilar) aksiyalarining ko’p qismi sertifikat ko’rinishiga ega bo’lib, bu sertifikatlar ularning egalari topshirig’iga ko’ra, xususiy aksiyadorlar aksiyalarining juda katta qismi jamlangan banklar tomonidan boshqariladi[4].

Xorij amaliyotida korporatsiyalarning tashkiliy strukturasini shakllantirishda korporativ usul mexanizmlaridan foydalanish tajribasi umuman olganda “korporativ boshqaruva shaklidagi tuzilmalar moliyasi” tizimini tartibga solish va takomillashtirish masalasi faol o’rganilmoqda va mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini e’tiborga olgan holda amaliyotga tadbiq etishga harakat qilinmoqda.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

Xulosa/tavsiyalar. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aksiyadorlik jamiyatlarini moliyasini samarali tashkil etish hamda moliyaviy boshqaruvi tizimini modernizatsiyalash, jumladan, korporativ tuzilmalarning (aksiyadorlik jamiyatlarining) uzoq muddatli yashovchanligi va raqobatbardoshligini o'tish davrida ta'minlash masalasi ular ishlab chiqarish salohiyatini tubdan qayta qurish va zamonaviylashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ushbu hol birinchidan, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida hozirgi zamon intensiv iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi korporativ tuzilmalarni vujudga keltirilganligi va ular iqtisodiyotda salmoqli o'rin tutishi bilan bog'liqligi bo'lsa, ikkinchidan, respublikamizda bu toifadagi tuzilmalar mulkni tasarruf yetish, ishlab chiqarishni boshqarishning samarali shakli sifatida e'tirof etilganligi va ularning mulkdorlar qatlamini shakllantirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. Bugungi zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda korporativ boshqaruvi shaklidagi tuzilmalarni jadallashtirishdan asosiy maqsad, yuqoridaq ustuvor vazifalarni hal etishga qaratilgan qator ilmiy xulosalar chiqarishga imkoniyat beradi.

Shunday qilib, bugungi kunda chuqur milliy muammo bo'limgan korporativ boshqaruvi muammosi xalqaro xususiyat kasb etmoqda. Bu, xususan, jahon ishlab chiqarishining transmilliyashuvi va transmilliy korporatsiyalarning jahon bozorida tutgan o'rni va roli bilan bog'liqdir.

Xorijiy tajribalarni o'rganish asosida zamonaviy sharoitda qurilish sohasida korporativ boshqaruvni takomillashtirish yuzasidan quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

korporatsiyalarning maqsadli o'zini-o'zi rivojlantirish bo'yicha ichki imkoniyatlarini tavsflovchi korporativ boshqaruvi salohiyatining mavjudligidan kelib chiqqan holda, qurilish sohasidagi aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvi tizimini shakllantirishning milliy konsepsiyasini ishlab chiqish; zamonaviy milliy aksiyadorlik jamiyatları korporativ madaniyatining konseptual modelini yaratish;

kontseptual modelni amalga oshirish bilan bog'liq samarali korporativ boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha uslubiy qoida(tavsiya)larni ishlab chiqish;



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

rivojlanishning hozirgi bosqichida aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan korporativ strategiyani amalga oshirishda **strategik yondashuv** tamoyilini qo'llash algoritmini yaratish;

raqamli iqtisodiyot rivojlanishning hozirgi bosqichida aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ madaniyatini shakllantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari hamda “korporativ madaniyat” kompleks maqsadli dasturni ishlab chiqish.

Xulosa o‘rnida shuni ham ta’kidlash joizki, har qanday rivojlangan mamlakatdagi eng qudratli va eng tez rivojlanayotgan qurilish kompaniyalari aksiyadorlik jamiyatlari ko‘rinishida tashkil etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar(manbalar) ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4720-son farmoni. <https://lex.uz/docs/2635197/>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-son farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
3. Begmatov A.S., Xamidulin M.B., Bo’taboev M.Sh. “Korporativ madaniyat va korporativ boshqaruv”. – T: “Akademiya” nashriyoti, 2007., 224 b.
4. Elmiraev S.E. “Zamonaviy korporativ boshqaruv”. – T: 2019., 32 b.
5. Nekrasov S.N., Nekrasova N.A., Busygin O.V. Korxonalarning tashkiliy rivojlanish omillari. M.: Tabiiy fanlar akademiyasi, 2009. 78 b.
6. Mao P., Li Sh, Ye K, Cai H. Tashkiliy tuzilmaning qurilish loyihalarida tashkiliy madaniyatni shakllantirishga ta’sirini aniqlash uchun maydon nazariyasiga asoslangan model // KSCE qurilish muhandisligi jurnali. 2017. 21 (1). pp. 45-53.
7. Lalu F. Kelajakdagi tashkilotlarni ochish. M.: Mann, Ivanov va Ferber, 2017. 432b
8. Lim B.T.H., Ling F.Y.Y., Ibbs C.V. va boshqalar. Qurilish biznesida tashkiliy moslashuvchanlikni belgilovchi omillarning empirik tahlili//Qurilish muhandisligi va boshqaruvi jurnali. 2011. 137(3). pp. 225-237.
9. www.lex.uz



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2024

10. www.ziyonet.uz

11. www.ser.uz

12. www.stat.uz

13. www.gov.uz

14. www.mineconomy.uz

15. www.mc.uz